



TALABALARDA IJTIMOIIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY METODIKASI

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.066>

Mexmonaliyev Nodirjon Qodirovich
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi
e-mail: mexmonaliyevnodirjon@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishning amaliy metodikasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda interfaol mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar tahlili va reflektiv tahlil orqali ijtimoiy intellektni shakllantirishning samarali yo‘llari yoritiladi. Maqolada falsafa fanlari va psixologik yondashuvlar orqali empatiya, muloqot madaniyati, konfliktlarni hal etish va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari keltiriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy intellekt, amaliy metodika, empatiya, muloqot, refleksiya, oliy ta’lim.

Аннотация. В статье анализируется практическая методика развития социального интеллекта студентов. Рассматриваются интерактивные занятия, ролевые игры, анализ проблемных ситуаций и рефлексивный анализ как эффективные средства формирования социального интеллекта. Показаны возможности развития эмпатии, коммуникативной культуры, навыков разрешения конфликтов и социальной адаптации с использованием философских и психологических подходов.

Ключевые слова: социальный интеллект, практическая методика, эмпатия, коммуникация, рефлексия, высшее образование.

Abstract. This article analyzes practical methodologies for developing students’ social intelligence. Interactive lessons, role-playing, problem-based analysis, and reflective exercises are discussed as effective ways to develop social intelligence. The study highlights methods for fostering empathy, communication skills, conflict resolution, and social adaptation through philosophical and psychological approaches.

Keywords: social intelligence, practical methodology, empathy, communication, reflection, higher education.

Kirish.Hozirgi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida nafaqat talabalarga nazariy bilimlar berish, balki ularning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhim vazifa sifatida qaraladi. Zamonaviy jamiyatda shaxsning muvaffaqiyati nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki samarali muloqot qila olish, ijtimoiy vaziyatlarni to‘g‘ri baholash, empatiya va reflektiv tafakkur kabi ijtimoiy intellekt ko‘rsatkichlariga ham bog‘liq. Shu bois, oliy ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni shakllantirish va rivojlantirish talabalarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini oshirishning asosiy shartlaridan biridir.

Ijtimoiy intellekt tushunchasi ilk bor E.L.Thorndike (1920) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, shaxsning insonlararo munosabatlarni tushunish va boshqarish qobiliyati sifatida talqin qilingan. Keyingi tadqiqotlarda D.Goleman (2018), P.Salovey va J.Mayer (1990) ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarni o‘rganib, shaxsning ijtimoiy muvaffaqiyati empatiya, muloqot madaniyati, ijtimoiy vaziyatlarni anglash va reflektiv tafakkur kabi ko‘nikmalar bilan bog‘liqligini isbotlagan. MDH mamlakatlari olimlari, xususan L.S.Vigotskiy (1978), V.N.Kunitsina, A.I.Fedorenko va A.S.Yujaninova shaxsning ijtimoiylashuvi va kommunikativ faoliyati bilan ijtimoiy intellektning uzviy bog‘liqligini ilmiy jihatdan yoritgan.

O‘zbek olimlari, jumladan B.X.Xodjayev (2020), V.Karimova va E.G‘oziyev (2019), O.Musurmonova va N.Mahmudova shaxsning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, reflektiv tafakkur va muloqot madaniyatini shakllantirish bo‘yicha metodik yondashuvlarni ishlab chiqqan. Falsafa fanlari esa talabalarda tanqidiy tafakkur, axloqiy mas’uliyat, ijtimoiy ong va dialogik fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mantiqiy tahlil, bahs-munozara va interfaol mashg‘ulotlar talabalarning ijtimoiy vaziyatlarni anglash va baholash qobiliyatini oshiradi.

Mazkur maqolada, avvalgi tadqiqotlardan farqli ravishda, ijtimoiy intellektning amaliy shakllanishi va rivojlantirilish metodlari tahlil qilinadi. Shu jumladan, falsafa fanlari orqali talabalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlari, interfaol va reflektiv ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi va shaxsning ijtimoiy vaziyatlarni baholash, boshqalarning fikrini tushunish va ijtimoiy hamkorlik qobiliyatlarini oshirish usullari keng yoritiladi. Ushbu yondashuv oliy ta’limda raqobatbardosh, ijtimoiy mas’uliyatli va faol mutaxassislarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Talabalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika, psixologiya va falsafa fanlari doirasida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida keng tadqiq etilmoqda. Ijtimoiy intellekt tushunchasi ilk bor E.L.Thorndike (1920) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, u shaxsning insonlararo munosabatlarni tushunish va boshqarish qobiliyati sifatida talqin qilingan. Ushbu yondashuv keyinchalik ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan.

Ijtimoiy intellektning psixologik jihatlari D.Goleman (2018), P.Salovey va J.Mayer (1990) tadqiqotlarida emotsional va ijtimoiy qobiliyatlarning o‘zaro bog‘liqligi nuqtai

nazaridan tahlil etilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, shaxsning ijtimoiy muvaffaqiyati empatiya, muloqot madaniyati, ijtimoiy vaziyatlarni anglash va reflektiv tafakkur kabi sifatlarning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Ushbu yondashuv ijtimoiy intellektni shaxsning faqat individual xususiyati emas, balki ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanuvchi kompleks tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ijtimoiy intellekt masalasi shaxsning ijtimoiylashuvi va kommunikativ faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilgan. Xususan, L.S.Vigotskiy (1978) ijtimoiy muhit va muloqotning shaxs rivojida hal qiluvchi rolini asoslab, ijtimoiy tajribaning bilish jarayonlariga ta’sirini ilmiy jihatdan isbotlab bergan. V.N.Kunitsina, A.I.Fedorenko, A.S.Yujaninova tadqiqotlarida ijtimoiy intellektning kommunikativ, reflektiv va empatik komponentlari tahlil qilinib, uning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

O‘zbek olimlarining ilmiy izlanishlarida shaxsning ijtimoiy kompetensiyalari, muloqot madaniyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. B.X.Xodjayev (2020) kompetensiyaviy yondashuv asosida shaxsning ijtimoiy va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqqan bo‘lsa, V.Karimova va E.G‘oziyev (2019) shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi, reflektiv tafakkur va ijtimoiy moslashuv masalalarini chuqur tahlil qilgan. O.Musurmonova va N.Mahmudova tadqiqotlarida esa ta’lim jarayonida shaxsning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar ilmiy jihatdan asoslangan.

Falsafa fanlarining shaxs intellektual va ijtimoiy rivojida o‘rni falsafiy-antropologik va axloqiy yondashuvlar asosida ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. Falsafiy ta’lim shaxsda tanqidiy tafakkur, refleksiya, axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, falsafa fanlari doirasida olib boriladigan mantiqiy tahlil, bahs-munozara va dialogik yondashuvlar talabalarning ijtimoiy vaziyatlarni tushunish va baholash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tizimli va faoliyatli yondashuvlarga asoslandi. Tadqiqot jarayonida falsafa fanlarining mazmuni va o‘qitish metodlari ijtimoiy intellektni rivojlantirish nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Shuningdek, pedagogik kuzatish, nazariy tahlil, qiyosiy solishtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar talabalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Natija va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish jarayoni nazariy bilimlar, kognitiv faoliyat va reflektiv tafakkurning uyg‘unligi asosida izchil amalga oshadi. Nazariy bilimlar talabalarga pedagogik hodisalar va jarayonlarning mohiyatini chuqur anglash, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar asosida fikr yuritish imkonini beradi. Kognitiv faoliyat esa bilish jarayonlarini faollashtirib, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish hamda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Reflektiv tafakkur esa talabalarning o‘z o‘quv va kasbiy faoliyatini tanqidiy baholash, shaxsiy yutuq va kamchiliklarini aniqlash hamda doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ichki ehtiyojni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Falsafa fanlari orqali olib borilgan ta‘lim jarayoni talabalarda muloqot madaniyati, empatiya, axloqiy mas‘uliyat, tolerantlik va ijtimoiy hamkorlik kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Muammoli savollar, falsafiy munozaralar, dialog va reflektiv tahlilga asoslangan mashg‘ulotlar talabalarga ijtimoiy vaziyatlarni baholash, boshqalarning fikrini tushunish va o‘z pozitsiyasini asoslab berish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, talabalarning shaxsiy tajribasi va ijtimoiy faoliyati bir-biri bilan uyg‘unlashib, ularning jamiyatdagi ijtimoiy roli va mas‘uliyatini oshiradi.

Ijtimoiy intellektning rivojlanishi talabalarning kasbiy tayyorgarligiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday kompetensiyaga ega bo‘lgan pedagoglar o‘quv jarayonini zamonaviy ta‘lim talablari asosida samarali tashkil etadi, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqadi va pedagogik faoliyatda ijodiy va moslashuvchan yondashuvni namoyon qiladi. Natijada, talabalarning ijtimoiy tafakkuri va muloqot qobiliyatlari rivojlanadi, ularning jamiyatda faol, mas‘uliyatli va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishi ta‘minlanadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida foydalanilgan metodologik yondashuvlar — kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, tizimli va faoliyatli yondashuvlar — talabalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi. Shu orqali oliy ta‘lim muassasalarida ijtimoiy intellektni rivojlantirish bo‘yicha interfaol va reflektiv mashg‘ulotlar tizimi ishlab chiqilishi va qo‘llanilishi amalda samarali ekanligi isbotlandi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish oliy ta‘limning zamonaviy vazifalaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega. Falsafa fanlari bu jarayonda nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki talabalarning ijtimoiy tafakkuri, empatiya, muloqot madaniyati va reflektiv fikrlashini shakllantirishda metodik va mazmuniy jihatdan muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ko‘rsatdiki, interfaol va reflektiv ta‘lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarda ijtimoiy vaziyatlarni tushunish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, shuningdek, o‘z qarorlarini asoslash va tanqidiy baholash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Muammoli savollar, falsafiy munozaralar, dialog va reflektiv tahlil metodlaridan foydalanish talabalarda ijtimoiy mas‘uliyat, tolerantlik va jamoada ishlash qobiliyatlarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, ijtimoiy intellektning rivojlanishi talabalarning kasbiy tayyorgarligiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday kompetensiyaga ega bo‘lgan kelajakdagi pedagoglar o‘quv jarayonini zamonaviy ta‘lim talablariga moslashtirib, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqadi va pedagogik faoliyatda ijodiy hamda moslashuvchan yondashuvni amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish oliy ta’lim tizimida samarali pedagogik jarayonlarni yaratish, jamiyatda mas’uliyatli, faol va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida falsafa fanlarini o‘qitishda ijtimoiy intellektni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni keng joriy etish, interfaol va reflektiv ta’lim texnologiyalarini qo‘llash amaliyoti talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman D. Social Intelligence. — New York, 2018.
2. Thorndike E.L. Human Intelligence. — New York, 1920.
3. Salovey P., Mayer J. Emotional Intelligence. — New York, 1990.
4. Vigotskiy L.S. Mind in Society. — Cambridge, 1978.
5. Karimova V. Shaxs va ijtimoiy munosabatlar psixologiyasi. — Toshkent, 2019.